

# YONG'IN SODIR BO'LGAN FAVQULODDA VAZIYATLARDA QUTQARUV JARAYONLARINI TASHKIL ETISH USULLARI

*Bozorov Subxon Esanovich*

*Buxoro Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi*

*Hayot faoliyati xavfsizligi o`quv*

*markazi katta o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada yong'in sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarda uni bartaraf etish, yordam ko'rsatish, qutqaruv ishlarini amlaga oshirishda mumkin va mumkin bo'limgan holatlar yordamchi va zaruriy vositalar, hamda favqulodda vaziyatlar xodimlarining asosiy vazivalari xususidagi fikrlar ifoda etilgan.

**Kalit so'zlar:** yong'in, yong'in o'choqlari, yong'in o'chirish texnikasi, xavsizlik, profilaktika.

## KIRISH

"Yong'inlar profilaktikasi samaradorligini oshirish va yong'in xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hukumat qarori qabul qilindi.

Qarorga ko'ra, 2023-yil 1-sentabrdan muntazam ravishda "Yong'indan ogohlilik" umummilliyl kampaniyasi amalga oshirilib, unda jumladan quyidagilar nazarda tutiladi:

- ta'lim tashkilotlarida yong'inlarning oldini olish va yong'in sodir bo'lgan vaziyatda harakat qilish bo'yicha batafsil uslubiy mashg'ulotlar o'tkazish;
- davlat tashkilotlari, tadbirkorlik subyektlari va boshqa tashkilotlarda ish joylarida yong'in xavfsizligi bo'yicha o'qitishni tashkil etish;
- jamoat joylarida, ta'lim tashkilotlarida, ish joylarida va turarjoy komplekslarida o't o'chirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.

2024-yildan umummilliyl kampaniya doirasida har bir hududda tadbirkorlar o'rtaida "Yong'in xavfsizligi a'lochisi" tanlovi o'tkaziladi.

Mazkur tanlov g'olibiga 100 million so'm miqdorida bir martalik pul mukofoti beriladi hamda uning faoliyati 2 yil davomida davlat yong'in nazorati organlari tomonidan tekshirilmaydi. 2024-yil 1-yanvardan jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bino va inshootlarning yong'in xavfsizligi talablariga muvofiqligini mustaqil baholash tartibi (yong'in audit) joriy etilishi belgilanganligi ushbu mavzu anchagina jiddiy va doimiy e'tibor talab etadigan jarayon ekanligidan dalolat beradi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekiston Respublikasining "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi [Qonuniga](#) muvofiq yong'indan saqlash xizmati bo'linmalari tomonidan

yong‘inlarning o‘chirilishini tashkil etish tartibini belgilaydi.[2] Ushbu qonunga ko‘ra dastalab yong‘in bilan bog‘liq favqulodda vaziyat to‘g’risidagi qutqaruvchi bilishi lozim bo‘lgan tushunchalar to‘liq yoritilgan.

**yong‘in** — odamlarning hayoti va (yoki) sog‘lig‘iga, yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga, shuningdek atrof tabiiy muhitga zarar yetkazadigan, nazorat qilib bo‘lmaydigan yonish;

**yong‘in o‘chirish yenglari** — bu egiluvchan quvur o‘tkazgichi bo‘lib, bir-biri bilan ulanib, yong‘in joyiga o‘chirish vositalarini yetkazib berish uchun xizmat qiladigan moslama (maxsus shlang);

**yong‘in o‘chirish texnikasi** — yong‘inni o‘chirish, tarqalishini to‘xtatish, bartaraf qilish, odamlar va ularning mol-mulklarini yong‘indan himoya qilish uchun ishlataladigan texnik vositalar;

**yong‘in o‘chirish uchastkasi** — yong‘in o‘chirishni bajarish uchun kuch va vositalar yig‘ilgan joy;

**yong‘in o‘chirish ekipaji** — odamlar va ularning mol-mulklarini yong‘indan qutqarishda hamda yong‘inni o‘chirishda alohida topshiriqlarni mustaqil ravishda bajarish vazifasi yuklatilgan birlamchi taktik bo‘linma;

**yong‘in holatini aniqlash** — yong‘indagi vaziyat haqidagi ma’lumot to‘plash hamda hal qiluvchi yo‘nalishni aniqlab, harakatni to‘g‘ri tashkil qilish;

**yong‘inni bartaraf qilish** — yong‘inni batamom o‘chirib uning qayta yonish imkoniyatini tugatish;

**tezkorlik shtabi** — yong‘inda kuch va vositalarni boshqarish uchun vaqtincha tuzilgan tuzilma.

2. Yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalari yong‘inni o‘chirish, yong‘inlar va avariyalarning kelib chiqishi hamda kuchayishining (tarqalishining) oldini olish bilan bog‘liq zarur ishlarni amalga oshirishda yong‘inni o‘chirish maqsadi uchun tabiiy va sun‘iy suv manbalaridan suv bilan bepul ta’minlanadi.

3. Asosli tavakkalchilik doirasida harakat qilgan yong‘indan saqlash xizmati bo‘linmalarining shaxsiy tarkibi va yong‘inni o‘chirishda qatnashgan boshqa ishtiroychilar yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashdan ozod qilinadi.

Qutqaruv ishlari quyidagi holatlar yuzaga kelganda tashkil qilinadi va o‘tkaziladi, agar:

✓ odamlarga olov, yuqori harorat, portlash xavfi yoki binoning qulashi xavfi bo‘lganda, ular turgan xonalar tutun yoki zaharli gazlar bilan to‘lgan bo‘lsa; odamlar o‘zlarini xavfli joydan chiqolmay qolsa.

Yong‘inda odamlarni qutqarish yong‘inni bartaraf etish bilan bir vaqtida o‘tkaziladi.

Agar bir vaqtning o‘zida odamlarni qutqarish va yong‘inni bartaraf etishga kuch va vositalar kamlik qilsa, odamlarni qutqarish uchun Favqulodda vaziyatlar vazirligi

yong'in-qutqaruv bo'linmalarining barcha shaxsiy tarkibidan foydalaniladi hamda qo'shimcha kuch va vositalar chaqiriladi.[1]

### **Odamlarni qutqarish uchun:**

- binolarning asosiy kirish va chiqish hamda zaxira yo'llaridan;
- derazalar, ayvonchalar, yong'in o'chirish narvonlari, avtonarvonlar, avtoko'targichlar va boshqa qutqarish qurilmalaridan;
- yong'in o'chiruvchilar tomonidan ochilgan to'siq va devor tuynuklaridan foydalaniladi.

Odamlarni qutqarish va xavfsiz joyga olib chiqish quyidagilardan iborat:

- ✓ odamlarni xavfsiz yo'nalish bo'ylab o'zлari yoki yong'in o'chiruvchilar kuzatuvida chiqarish;
- ✓ harakat qilolmaydigan odamlarni olib chiqish;
- ✓ qutqaruv yo'llarining olov yoki tutun bilan to'silib qolib, chiqib ketishning iloji bo'lmasa, odamlarni narvonlar, avtonarvonlar, avtoko'targichlar va texnik qutqaruv qurilmalari yordamida qutqarish.

### **Qutqaruv ishlari o'tkazilayotganda:**

- xabar berish va boshqa texnik vositalardan foydalangan holda sarosimaga tushmaslikning oldini olish chorasini ko'rish;
- qutqaruv ishlariiga tashkilotlarning xodimlarini va ko'ngilli yong'in o'chirish drujinalarini (bundan keyingi o'rnlarda KYO'D deb yuritiladi) jalb etish; tez tibbiy yordam chaqirish hamda yong'indan jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish zarur.

Yong'in sodir bo'lgan binoda odamlarning qolganligi haqida ma'lumot bo'lsa, binodagi barcha yonayotgan va tutunga to'lgan xonalar sinchiklab tekshiriladi.

Qutqarishga muhtojlarning yo'qligi aniqlangandan so'ng odamlarni qidirish ishlari to'xtatiladi.


## **O't o'chirgich bilan ishlash qoidalari**



### **O't o'chirgichlarni joylashtirish:**

To'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari tushishi va isitish moslamalari ta'sir qilishidan saqlang

Eshikdan masofa uni to'liq ochish uchun yetarli bo'lishi kerak



Eshiklarning bukmuni yong'inga qurish uchun 1-2 metrda qo'shilishga bo'lib seyping



Yong'in o'chirgichini yesayotgan eshkot madanligiga 1 m dan yaqinroq olib kelmasq



Sepish oqimini faqat shamol tomonidan yo'naltiring



Yog'mahsulotli olovini o'chirishda sejsh oqimini yugoridan pastga yo'naltirish tasqilanesdi



Sepish oqimini olovning eng yaqin chetiga yo'naltiring, yong'in o'chiganda esa-sekin chiqarishsiz



Yong'in o'chirgichini yuqorida pastga qaratma o'chiring



Eshik be'lsa, yong'inni o'chirish uchun bir nechta o't o'chirgichlarda foydalening



Yong'in davom etmayotganligiga ishonch bosil qiling

## XULOSA VA MUNOZARA

### **Yong'inni oldini olish uchun quyidagi qoidalarga rioya qiling:**

- ⊕ Yonuvchi narsa va suyuqliklar olovdan va isitish asboblaridan uzoqda saqlanishi kerak;
- ⊕ Nosoz elektr asboblaridan foydalanish mumkin emas;
- ⊕ Bir nechta elektr asboblari vilkalarini bir razetkaga birdaniga tiqmang;
- ⊕ Gugurt o'yinchoq emas, buni doimo yodda tuting;

Yong'in sodir bo'lib qolsa uydan tez chiqishga halaqit bermasligi uchun zina maydonchalari, balkon ortiqcha buyumlardan xoli bo'lishi kerak;

Transport vositalarida ham yong'in xavfsizligi qoidalariiga amal qiling;  
Transport vositalarida yonuvchan moddalarni olib yurish taqiqlanadi, yengil alanganuvchan suyuqliklarni yo'lovchilar ko'p vagonda tashish juda xavfli;

Uyda iloji bo'lsa ixcham o't o'chirgich hamda telefon oldida avariya xizmatlari telefon raqamlari ko'rsatilgan qo'llanma osig'liq turishi lozim.

### **Yong'in chiqqan hollarda:**

- Darhol o't o'chirish xizmati 101 raqamiga xabar bering;
- Mavjud bo'lgan vositalar (o't o'chirgich, suv, qum, qalin yopqichlar) yordamida yong'inni o'chirishga urinib ko'ring;
- Yonayotgan xonaga havo kirishini chekla (derazalarni va eshiklarni zarurat bo'lmasa ochma), quyuq tutun bo'lganda zudlik bilan xonani tark et va eshikni mahkam yoping;
- Xonadan chiqayotganingda ko'zlariningni va nafas olish organlarini tutundan respirator, paxta dokali niqob, ho'llangan latta yoki sochiq bilan himoya qiling.

### **Evakuatsiya qilish yo'llari:**

- Zinapoyalar, tutash balkonlardan;
- Tashqi yong'in narvonlari;
- Yo'laklar;

Baland imoratlarda balkonlardagi pastki qavatlarga tushadigan evakuatsiya lyuklaridan foydalanish mumkin.

### **Bularni bilish kerak!**

- ✓ Ho'l sochiq yoki qalin gazlama nafas olish organlarini tutundan saqlaydi;
- ✓ Vaqtida (tez yordam kelguncha) qilingan sun'iy nafas jabrlangan kishining hayotini saqlab qoladi;
- ✓ Sun'iy nafas oldirish ochiq havoda bo'lishi kerak;

Odamlar badanidagi kuygan joylarni vodoprovod suvida yuvish tavsiya etiladi.

### **Mumkin emas:**

- ❖ O't o'chiruvchilarni chaqirmay yong'in bilan mustaqil kurashish;

- ❖ Elektr asboblarini tokdan o'chirmay suv bilan o'chirish (tok urib olishi mumkin);
- ❖ Tutunni chiqarib yuborish uchun deraza va eshiklarni ochish (yong'in toza havo kirishi natijasida kuchayadi);
- ❖ Katta maydon yong'in ostida qolgan vaqtida liftdan foydalanish (odam liftda qamalib va tutundan bo'g'ilib qolishi mumkin);
- ❖ Tutunli yo'lak yoki zinapoya orqali chiqishga harakat qilish (tutun zaharli, issiq havo esa o'pkani kuydirishi mumkin);
- ❖ Tarnov quvurlaridan, arqon va boshqa narsalarga osilib tushish (qulab tushish ehtimoli katta);
- ❖ Derazalardan sakrash (3 qavat va undan yuqorisidan sakrashning har ikkinchisi o'lim bilan tugaydi)

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 4-avgustda "Yong'inlar profilaktikasi samaradorligini oshirish va yong'in xavfsizligi sohasida davlat nazoratini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 332-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirining 2019-yil 30-avgustdagi 440-sonli buyrug'i (29-bandning ikkinchi xatboshisi (ro'yxat raqami 2119-1, 16.09.2019-y.) tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.09.2019-y., 10/19/2119-1/3753-son)
3. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-y., 40-son, 432-modda.
4. [https://www.fvv.uz/uz\\_lat/news/637](https://www.fvv.uz/uz_lat/news/637)